



AYOLLAR HUQUQI VA OILA JAMIYATI

Chorshanbiyeva Parizoda Murodulla qizi

Inson huquqlari (Ombudsman) ayollar huquqlari yetakchi mutaxasisi

Annotatsiya: *Islom dinida ayollar haqidagi tushunchalar, ularning huquqlari, oilada tutgan o‘rni va oiladagi vazifalari. Islom dini kirib kelishidan oldin ayollarga nisbatan ularni huquqlarini kamsitish. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik. Islom dinida nikoh masalasi.*

Kalit so‘zlar: *ayol, erkak, nikoh masalasi, adolat, din, oila, tenglik, zo‘ravonlik, talim, meros.*

Abstract: *Concepts of women in Islam, their rights, their role in the family and their duties in the family. Discriminating the rights of women before the introduction of Islam. Violence against women. The issue of marriage in Islam.*

Key words: *woman, man, marriage issue, justice, religion, family, equality, violence, education, inheritance.*

Kirish

Xotin-qizlar huquqlari masalasi inson huquqlarining ajralmas qismi, sivilizatsiyaning eng muhim yutuqlaridan biridir. Bugungi kunda har bir xonadonning fayzu farishtasi, farzandlarni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo‘shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Xotin-qizlar ham zimmalaridagi mas‘uliyatni to‘liq his etib, qaysi sohada bo‘lmasin, samarali mehnat qilib, yurt ravnaqi, xalq farovonligiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelishmoqda. Jumladan, bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Senatda esa, bu ko‘rsatkich qariyb 25 foizga yetdi. Mahalliy Kengashlar deputatlarining 31 foizi ham faol ayollardan iborat. Ana shunday natijalar tufayli O‘zbekiston parlamenti ayol deputatlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o‘rtasida 37 pog‘onaga ko‘tarildi. Holbuki, bundan 5 yil ilgari 128 o‘rinda edi. Shuningdek, mamlakatimiz xotin-qizlari ta‘lim, madaniyat va ilm-fan sohasi rivojiga salmoqli ulush qo‘shmoqda. Ilmiy-ta‘lim muassasalarida 700 nafarga yaqin ayol fan doktori va 6 nafar ayol akademik, 15 nafar ayol O‘zbekiston Qahramoni unvonlariga ega ekanliklari quvonarli holdir.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiytadqiqot institutlarida, Oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida ming-minglab xotin-qizlar samarali tadqiqot ishlarini olib bormoqda. O‘zbek olimi ayollari nafaqat tabiiy fanlar, balki ijtimoiy jabhalarda ham kuchli intellektual salohiyatga ega ekanliklarini namoyon etmoqdalar.

Islom dinimizda har bir insonning jamiyatda o‘ziga yarasha o‘rni va hurmati bor ekanligi bayon etilgan. Shuningdek bugungi zamonaviy dunyoda ham har bir shaxs o‘z o‘rni va o‘z huquqlariga ega. Islom dinimizda ayollarga va erkaklarga birdek tenglik bilan muomala qilinadi.

Ammo johiliyat davrida ayollarni kamsitish holatlari ko‘p kuzatilgan. Islom dini paydo bo‘lishidan oldin ayollarga zulm qilish, ularni odam o‘rnida ko‘rmaslik, meros masalalarida ularni chetlab o‘tish hamda ta‘lim olishda ham cheklovlar bo‘lgan. Shuningdek johiliyat davrida ayollarga shu darajada past nazar bilan qaralganki, ularni yoshlik paytidayoq tiriklayin ko‘mish holatlari ham kuzatilgan chunki ular uchun qiz farzand dunyoga kelishi isnod hisoblangan.

Islom dini taraqqiy etishni boshlagandan so‘ng ayollarga e‘tibor oshdi, yani ular erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lganlar. Shuningdek muqaddas kitobimiz Qur‘oni karimning katta suralaridan biri “Niso” (“Ayollar”) deb nomlangan va Qur‘oni karimning 35 ta sura va 100 dan ortiq oyatlarida ayol so‘zi ishlatilgan.

Alloh taolo “Niso” surasida bunday marhamat qiladi: Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig‘i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba‘zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o‘z oilasiga) o‘z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir...” (Niso surasi 34-oyat).

Ushbu oyatda Alloh taollo soliha ayolning sifatlarini sanab o‘tgan va shuningdek soliha, itoatkor ayolga nisbatan zulm qilmaslikni ham takidlab o‘tgan.

Islom dini jamiyatni o‘zgartirdi ayol qizlarga ko‘plab imkoniyatlar berdi. Ularga nisbatan zo‘ravonliklar, ularni kamsitish, shuningdek ularning huquqlarini cheklash holatlari anchagina kamaydi. Islomda ayollarga berilgan huquqlarning yana bir muhim jihati ularning ta‘lim va ilm-fandagi ishtirokidir. Islom madaniyati va an‘analari ta‘lim va ilm-fanni qo‘llab-quvvatlaydi va rag‘batlantiradi va Islomda ayollar ta‘lim olishda keng imkoniyatlar va huquqlarga ega. Bunday ayollarga 9-10asrlarda yashagan Alisiya Al-Xannu yoki Fotima al-Fihriy kabi mashhur olim va faylasuflarni misol qilib keltirish mumkin. Alisiya Al-Xannu matematik va astronom bo‘lgan, shuningdek, 20-asr boshlarigacha islom olamida qo‘llanilgan kalendarni ishlab chiqqan. Fotima al-Fihriy hozirgacha musulmon olamidagi yetakchi ta‘lim muassasalaridan biri bo‘lgan Fez universitetining asoschisi edi. Bugungi zamonaviy dunyoda ham ko‘plab musulmon ayollar oliy ma‘lumotga ega bo‘lib, siyosat, biznes, tibbiyot va huquq kabi turli sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ular musulmon jamiyatlari va iqtisodlari rivojida muhim rol o‘ynaydi va ularning hayotning turli sohalariga qo‘shgan hissasini e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma‘lumki, xotin-qizlarga doimiy e‘tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy qismidir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat pensiyasi tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslarga, yoshidan qat‘i nazar, ish stajiga ega bo‘lmagan 1- va 2guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga hamda bolalikdan nogironligi bo‘lgan farzandi bor (bo‘lgan) onalarga nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida»gi Nizom[1] imzolandi. Mazkur Nizomning 6-bandida belgilanishicha, bolalikdan nogironligi bo‘lgan farzandi bor (bo‘lgan) onalarga – 55 yoshga yetganlarida yoshga doir ijtimoiy nafaqa tayinlanishi nazarda tutilgan.

Yana bir imtiyoz Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 apreldagi “Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini



to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»[2]gi Qaroridir. Ushbu hujjatga asosan xotin-qizlar va oilani qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi mablag‘lari hisobidan har yili respublika bo‘yicha mingdan ziyod og‘ir turmush sharoitida yashayotgan, nogironligi bo‘lgan, uy-joyga muhtoj xotin-qizlarga berilgan uylarning 10 foizlik boshlang‘ich badal to‘lovlari to‘lab berilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida»gi Qonun[3] hisoblanadi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatda fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta‘minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to‘lash tartibini belgilaydi. Qonunning 12-moddasi «z» bandida bolalikdan nogiron farzandlarning onalari ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan bo‘lsa — ish staji kamida 20 yil bo‘lgan taqdirda (basharti, ayol o‘gay o‘g‘il va o‘gay qizni ular 8 yoshga to‘lguniga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan bo‘lsa) pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinishi ko‘zda tutilgan. Yuqoridagi normativ-huquqiy hujjatning uzviy davomi sifatida yana bir farmon «Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo‘llabquvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»[4] gi qabul qilinib, ijroga qaratildi.

Ma‘lumki, muqaddas islom dinimizda belgilangan sahiylik, mehr-oqibat va insoniylikni o‘zida mujassam etgan yana bir Prezident farmoniga asosan 2022 yilning aprel oyidan boshlab, nogiron bo‘lib qolishi muddatidan qat‘iy nazar, nogironligi bo‘lgan shaxslarga bir xil miqdorda 622 ming so‘mga teng nafaqa tayinlanib borilishi belgilandi. Dastlabki hisob-kitoblarga asosan 49 ming nafar nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun nafaqa 41 foizga oshirilib, mazkur chorani amalga oshirishga 2022 yilga qo‘shimcha 81 mlrd so‘m ajratildi. Doimiy parvarishga muhtoj bo‘lgan 18 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolalarni parvarish qiluvchi ona (ota)larga minimal iste‘mol xarajatlardan kam bo‘lmagan miqdorda – 500 ming so‘m nogiron bola parvarishi uchun yangi nafaqa joriy etilildi. Unga ko‘ra, 30 mingdan oshiq nogironligi bo‘lgan bolalarni parvarish qiluvchi onalar uchun davlat byudjetidan 2022 yilda qo‘shimcha 157 mlrd so‘m ajratilganligi tahsinga loyiqdir[5].

Demak, mamlakatimizda nogiron va nogiron farzand tarbiyalayotgan ayollar huquqiy jixatdan himoyalani, ularga ijtimoiy yordamlar berish mexanizmi yaratilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yurtimizda xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va nufuzini yanada oshirish, ularning o‘z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlar yangi bosqichga ko‘tarilib bormoqda. Bugungi kunda xotin-qizlarning ijtimoiy turmushini yaxshilash, ularga munosib shart-sharoitlar yaratishga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, respublikamizning barcha hududlarida xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etildi. Bugungi kunda ular tomonidan 28 mingga yaqin opa-singillarimizga tadbirkorlik, hunarmandlik, kasbga qayta tayyorlash, bandlikni ta‘minlash yuzasidan amaliy yordam ko‘rsatilmoqda. Shuningdek, besh muhim tashabbus doirasida 21 ming 500 nafar qiz qisqa muddatli kasb-hunar kurslarida o‘qitildi. Ana shunday imkoniyatlar

tufayli tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan ayollar soni bir yilda qariyb 45 ming nafarga ko‘payib, ular tomonidan minglab yangi ish o‘rinlari barpo etilmoqda[6].

Yuqorida sanab o‘tilgan normativ-huquqiy hujjatlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, «Inson qadri uchun» tamoyilini barcha islohotlarimizning bosh mezoni sifatida belgilashdir.

Inson qadri uchun tamoyilini ro‘yobga chiqarishda 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi tom ma’nodan tarixiy voqea bo‘ldi. Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lgan ushbu tarixiy dasturulamal hujjatda yaqin va o‘rta istiqbolda O‘zbekistonning taraqqiyot tendentsiyalari, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini kompleks rivojlantirish yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan.

Taraqqiyot strategiyasining ahamiyati shundaki, uning ishlab chiqilishida mavjud muammolar e’tiborga olingan va yechimini kutayotgan dolzarb vazifalar aks ettirilgan. Eng muhimi, ushbu dasturiy hujjatning ishlab chiqilishida xalqimiz faol ishtirok etdi.

Prezidentimiz Farmoni bilan tasdiqlangan mazkur Taraqqiyot strategiyasida O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirish istiqbollari belgilab olingan. Bu borada quyidagi yettita ustuvor yo‘nalish bo‘yicha «Inson qadri uchun — 100 ta maqsad»ni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda:

— inson qadri yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

— mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

— adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

Taraqqiyot strategiyasining 69-maqsadi «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash» deb nomlangan. Unda, jumladan:

• 2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda uni 2022–2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash;

• xotin-qizlarning ta’lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o‘rnini yanada oshirish;

• xotin-qizlar o‘rtasida biznes ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha bepul o‘quv amaliy kurslarini tashkil etish, imtiyozli kreditlar va lizing ajratish, xotin-qizlarni ishga jalb qilgan holda kooperatsiya usulida tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish;

• «Ayollar daftari»ga kiritilgan va jarrohlik amaliyotini o‘tkazish lozim bo‘lgan xotin-qizlarning tibbiy muolaja xarajatlarini qoplab berish;

• «Ayollar daftari» orqali xotin-qizlarning muammolarini hal etish amaliyotini o‘rganish va tahlil qilish hamda orttirilgan tajribadan kelib chiqib, «Ayollar daftari»ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tartibi hamda «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi namunaviy nizom loyihalarini ishlab chiqish kabi vazifalar ko‘zda tutilgan.



Bundan tashqari, Taraqqiyot strategiyasining 60-maqsadida reproduktiv yoshdagi va homilador ayollar, bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha, 85-maqсадda esa, ayollar orasidagi ishsizlik darajasini 2 barobar kamaytirish, 80 mingdan ziyod ishsiz xotin-qizni davlat hisobidan kasb-hunarga o‘qitish, xotin-qizlarni tadbirkorlik va o‘zini o‘zi band qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, hududlarda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, har bir hududda «Xotin-qizlar hunarmandchilik markazlari» va klasterlarni tashkil qilish masalalari qamrab olingan. Shu bilan birga, xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyatini takomillashtirish, mintaqaviy markazlar ochish choralarini ko‘rish, tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni realizatsiya qilishga ko‘maklashish hamda xotin-qizlarni tadbirkorlikka o‘qitish va biznesga jalb qilish kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan.

Birgina misol: xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi hisobidan 3 yilgacha va 6 oygacha imtiyozli davr bilan yillik 14 foiz stavkada 33 million so‘mgacha kreditlar ajratiladi.

Kreditlar quyidagi dasturlarni:

- Tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ma‘qullangan dasturlar asosidagi o‘quv kurslari;
- «Ishga marhamat» monomarkazlari, kasb-hunarga o‘qitish markazlari, mahallalardagi kasb-hunarga o‘qitish maskanlari va Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari yoki nodavlat ta‘lim muassasalarining kasbga o‘rgatish o‘quv kurslarining maxsus o‘qitish dasturlarini muvaffaqiyatli tugatgan xotin-qizlarga beriladi.

Tadqiqotchilar Islomga ko‘ra ayollar XX asrgacha bo‘lgan ba‘zi G‘arb mamlakatlariga qaraganda ko‘proq huquqlarga ega ekanligini ta‘kidlaydilar. Masalan, fransuz qonunchiligiga muvofiq ayollarning huquq layoqatini cheklash faqat 1965yilda bekor qilingan. Garvard universitetining huquqshunos professori Noa Fildman, qayd etadiki: inglizlar barcha mamlakatlarda bo‘lgani kabi, o‘z qonunlarini musulmonlarga ham qo‘lladilar, maqsad esa bitta edi-ayolni islom qonunlari bergan huquqlaridan mahrum qilish. Buni gender tengligi yo‘lidagi rivojlanish deb atash mushkuldir .

Nikoh masalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, islomda ayolning nikoh huquqi, ya‘ni erga tegish va ajrashish (taloq) huquqi mavjud. Islom dini kirib kelishidan avval, qizlarni majburan turmushga berishgan. Ammo Islom dini buni qoralaydi va nikoh ayol roziligi majburiy bo‘lgan “shartnoma” sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga, ayol erining zimmasida ta‘minot va himoya bilan bog‘liq majburiyatlarga ega. Islom huquqiga ko‘ra nikohning haqiqiyliги quyidagi 4 shartning uyg‘unligi bilan belgilanadi:

1. Bevosita monelik qiladigan holatlarning yo‘qligi;
2. Muayyan shaxslarning roziligi;
3. Mahrning belgilanishi;
4. Rasmiy qoidalarga rioya etilishi .

Oila (urug‘-aymog‘) g‘ururi va nomusini sharmanda qilgan ayollarni o‘ldirish or-nomus qotilligi deb ataladi. Bunday qotilliklar ba‘zi musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lsada, boshqa mamlakatlarda ham sodir bo‘ladi. Ayrim musulmon ulamolari bu qotilliklar Islomga hech qanday aloqasi bo‘lmagan an‘ananing bir qismi, xolos, deb ta‘kidlaydilar. Eron



va kurd ayollarining huquqlarini himoya qilish tashkiloti hisobot e’lon qildi. Bunga ko’ra 2010-yilda 2829 yosh ingliz musulmon ayollari kaltaklangan, kislota bilan azoblangan, o’g’irlangan yoki o’ldirilgan. Bu ayollarning kelib chiqishi asosan, Pokiston, Hindiston va Bangladeshdan .

Shu o’rinda Rasululloh (s.a.v.) hadislaridan misollar keltirib o’tsak:

“Ey insonlar, ayollar haqlariga rioya etingiz. Ular bilan mehr-shafqat ila muomalada bo’lingiz. Ularning haqlari xususida Allohdan qo’rqingiz! Ayollar sizlarga Allohning omonatidir, ularni Alloh nomi bilan oldingiz. Ular amri ilohiy ila sizlarga halol bo’ldi. Sizlarning xotinlaringiz ustida haqlaringiz bo’lgani kabi, xotinlaringizning ham sizlarda haqlari bor” .

Bundan yaqqol ko’rinib turibdiki ayollarga nisbatan zulm qilish qoralanadi. Ammo, bugungi kunda ko’pchilik bu masalaga yuzaki qaragan holda ayollarga nisbatan tazyiq va zo’ravonliklar ko’payib borayotgani barchamizga ma’lum. Bularning bari huquqiy ong va huquqiy madaniyatning darajasi past ekanligidan dalolat beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ma’lumki, insoniyat doimo har tomonlama mukammallikka intilib kelgan. Lekin, afsuski, jamiyat bir maromda rivojlanmaydi. Ba’zan taraqqiyot turli urush va zo’ravonliklar bilan o’rin almashib keladi. Umuman olganda, zo’ravonlik ham aynan mana shunday buzilish holatlaridan biri sanaladi. Zo’ravonliksiz jamiyat mukammal jamiyat bo’lardi. Shu sababli zo’ravonlik hodisasini ijtimoiy va individual hayotning ajralmas elementi sifatida ilmiy jihatdan o’rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.A.Guseinov va R.A.Apresyan kabi bir qator olimlarning fikricha: “Zo’ravonlikning mohiyati odamlar o’rtasidagi iroda erkinligini yo’q qilish jarayoni bo’lib, bir tomonning kuch ishlatish va tashqi majburlash yo’li bilan o’z irodasini boshqalarga yuklashidir”. Zo’ravonlik va tazyiq tushunchasini har tomonlama o’rganish va ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday munosabatlar doimiy ravishda davlatlar, millatlar, alohida guruhlar, shaxslar va oila a’zolari o’rtasida sodir bo’lishi kuzatiladi.

Ayollardagi jismoniy zaiflik qoralanmaydi. Chunki ular bunga aybdor emas. Qalblarining nozikligi, his-tuyg’ularining kuchliligi esa, mo’tadil bo’lsa, maqtovga loyiqdir. Bu narsa ulardagi latofat va go’zallikni ziyoda qiladi. Payg’ambarimiz alayhissalom ayollardagi mana shu zaiflikni doim e’tiborga olar va ularni himoya qilishga haris edilar. Hatto vidolashuv hajlaridagi mashhur xutbada ham, ayollarga nisbatan yaxshi munosabatda bo’lishni qayta-qayta vasiyat qildilar. U Zot alayhissalom ayollariga qo’l ko’tarmadilar, ularga yaxshilik qilishda ummatga ibrat bo’ldilar va shu ishga targ’ib qildilar: “Yaxshilaringiz – oila ahliga yaxshi bo’lganidir. Men – ahli ayoliga eng yaxshingizman”.

Endi esa hozirgi davrda ayollar huquqlariga ham biroz to’xtalib o’tsak. Bugungi zamonaviy davrga kelib ayollarga bo’lgan e’tibor oshdi, ularga yangidan yangi imkoniyatlar eshiklari ochilmoqda va ularning huquqlari ham kafolanmoqda desak mubolag’a bo’lmaydi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo’ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2020-yil 4-yanvardagi 4-son qarori, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-noyabrdagi “Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, ular o’rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish tizimini yana-

da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 919-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi “Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 285son qarorini e‘tirof etish mumkin. Shuningdek, 11-sentyabr 2023-yildagi PF-158sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining 25-maqсадida Gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish to‘g‘risida ko‘plab qarorlar, qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonun va qarorlarning barida ayollar huquqlari mustahkamlangan. Bular faqat O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan hujjatlar bo‘lsa xalqaro miqyosda ham shu kabi ko‘plab qonunchilik hujjatlari qabul qilingan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Taraqqiyot strategiyasi va joriy yil bo‘yicha Davlat dasturidan ayollarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash, ularni bepul dorilar va vitaminlar bilan ta‘minlash, jismoniy tarbiyani rivojlantirish, yosh qizlar ta‘limi, ularni ish bilan ta‘minlash kabi ko‘plab masalalar joy olganki, bularning barchasi mamlakatimiz xotin-qizlari uchun davlat va jamiyat tomonidan ko‘rsatilayotgan chinakam g‘amxo‘rlik na‘munasidir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, islom dinida ayollar huquqlariga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, ular inson qadr-qimmatini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Islom dini kelgandan so‘ng, o‘sha davrning odatlariga zid ravishda ayollar huquqlari yaxshilandi va ular jamiyatda hurmat qozonishdi.

Adabiyotlar:

1. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.04.2021 й., 09/21/248/0386-сон, 05.06.2021 й., 06/21/6241/0527-сон; 08.02.2022 й., 09/22/62/0111-сон, 05.04.2022 й., 09/22/153/0266-сон, 30.04.2022 й., 06/22/128/0369-сон
2. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.08.2022 й., 09/22/438/0726-сон
3. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375сон, 30.10.2021 й., 03/21/726/1001-сон; 10.02.2022 й., 03/22/752/0113-сон, 18.05.2022 й., 03/22/770/0424-сон, 20.09.2022 й., 03/22/791/0832-сон; 27.10.2022 й., 03/22/795/0963-сон
4. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.04.2022 й., 06/22/128/0369-сон
5. ISLOM DINIDA AYOLLARNI EHTIROM QILISH BORASIDA KELGAN
6. HADISI SHARIFLAR. Proceedings of International Conference on Modern Science and Science Studies, 2(12), 579-584. Retrieved from
7. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/3347>



8. <https://m.kun.uz/news/2018/11/27/islom-aelni-ezozlagan-din-din-islari-bujicakumita-aellarni-ezozlasga-cakirmokda>
9. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/islom-huquqida-oilanikoh-va-meros-masalalari>